

## TALABALARDA INTEGRALLASHGAN KASBIY-GNOSTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Hamdamov Erkin Ergashevich**

*GulDU, katta o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-gnostik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari va uni amalga oshirish haqida ma'lumot beriladi, shuningdek, integrallashgan kasbiy-gnostik kompetensi batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-gnostik kompetensiyani shakllantirish metodikasi haqida ham so'z boradi.*

**Kalit So'Zlar:** *kasbiy-gnostik kompetensiyasini shakllantirish, pedagogik shart-sharoitlarni, gnostik-kompetentli yondashuv, tizimlilik, yaxlitlik, integrallashgan kompetensiyalarni rivojlantirish*

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatdiki, talabaning kasbiy-gnostik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida nafaqat kasbiy, balki shaxsiy fazilatlarni ham rivojlantirish kerak ekan.

Talabaning kasbiy-gnostik kompetensiyasini shakllantirish shaxsiy fazilatlarning bir qatorini namoyon etishni nazarda tutadi. Gnostik-kompetentli yondashuvga asoslangan kasbiy ta'lim amaliyoti, "bilimdon" mutaxassisni tayyorlash uning kasbiy sohasiga (kompetensiyalari) va kognitiv-shaxsiy komponentga (xotira, idrok, fikrlash) murojaat qilish bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Gnostik-kompetentli o'qituvchini tayyorlash esa qo'shimcha ravishda uning shaxsiy-psixologik sifatlarini (motivatsiya, o'quv va kasbiy faoliyat natijalariga qiziqish, kasbiy o'z-o'zini anglash, tashkiliylik va boshqa sifatlarni) rivojlantirishni talab qiladi.

Kasbiy-gnostik kompetensiyalarni o'rgatish mumkin emas, uni faqat talabalar tomonidan kompetensiyalarni egallash va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish asosida shakllantirish mumkin. Gnostik-yo'naltirilgan ta'limga o'tish OTMdan tegishli ta'lim muhitini yaratishni talab qiladi, shu jumladan, avvalombor, o'quv maqsadlari va natijalari, o'qitish, ta'lim berish, baholashning hamda o'qituvchi, talaba va talabalarning o'zlari o'rtasidagi, ularning shaxsga doir rivojlanishini rag'batlantiruvchi o'zaro ta'sirning yangi usullarini yangidan shakllantirishni talab qiladi.

Kasbiy-gnostik kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish doimiy ravishda, ta'lim tayyorgarligining barcha bosqichlarida, jamiyat bilan og'zaki muloqot qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni, maqsadlar, sohalar, vaziyatlar, sharoitlar va aloqa vazifalariga mos keladigan puxta o'ylangan maxsus mashqlar tizimi tufayli yuz beradi. O'qituvchi faoliyatida gnostik aspekt muhim o'rin tutishini yana bir bor ta'kidlaymiz, lekin gnostik kompetensiya nafaqat bo'lajak o'qituvchining

muloqotdagi muvaffaqiyati, balki o'quv maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishning muvaffaqiyati sifatida gavdalanadi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi va kasbiy-gnostik fazilatlarini shakllantirishning samarali tizimini qurish ta'limning asosiy tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Xususan: tizimlilik, yaxlitlik, bo'lajak o'qituvchi bakalavrlarni tayyorlash maqsad va mazmunining birligi, izchillik, uzluksizlik, individuallashtirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar shular sirasiga kiradi.

Kasbiy-gnostik kompetentsiya – bu bevosita insonning o'zaro ta'sir sharoitida shakllangan va faollashgan, odamlar o'rtasidagi muloqotning rivojlanayotgan va, asosan, ongli tajribasi sanaladi. Birgalikda shakllangan va amalga oshirilgan, shaxslararo tajriba, ayni paytda, individual hisoblanadi. Biroq, gnostik kompetentsiyani ushbu ijtimoiy-psixologik fazilatlarining jamiyatdagi xarakterini inobatga olmagan holda, yopiq individual tajriba sifatida tasavvur qilish mutlaqo noto'g'ri.

O'qitishning individual mazmuni, o'ziga xos sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining kasbiy-gnostik kompetentsiyasiga yuqori talablar qo'yadi. Bu nafaqat o'quv jarayoniga, balki uni rejalashtirishga ham tegishli. Bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarining kasbiy-gnostik kompetentsiyasini takomillashtirish kelajakka yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kasbiy-gnostik kompetentsiyani baholash, sinash va takomillashtirish ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning muhim elementlari sanaladi. Yuqori kasbiy daraja, albatta, gnostik-kompetentli barkamol bo'lajak bakalavr-o'qituvchining eng muhim sifati sanaladi. Bo'lajak o'qituvchilarning malakasini baholashning muhim mezonlari esa ularning nazariy va amaliy kompetentsiyalarini o'qitish metodikasiga singdirish qobiliyatidir.

Bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning integrativ ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda kompetentsiyalarga ega bo'lishlari lozim, ya'ni turli fan sohalarining o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan shaxsning umummadaniy malakasi, kelajakda talabalar madaniyatining asosini tashkil etadigan kompetentsiya va fundamental tushunchalarning yaxlit jihatini yaratadi, sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini, bo'lajak o'qituvchi maktabda o'quvchisining shaxsini muntazam ravishda o'rganish, jamoaning o'qitish va tarbiyasi, qiziqishlari va fanga munosabati natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi, tilga doir tayyorgarligi va shartlari darajasini aniqlash maqsadida, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishi zarur.


Shuning uchun ham, talabaning kasbiy-gnostik kompetentsiyalarini shakllantirish unumdorligi bir qator shartlarga, xususan, umumiy madaniy rivojlanishning avvalgi darajasiga, o'z-o'zini idrok etishning chuqurligi, shaxsning gnostik yadrosi shakllanganligi, maqsadli o'z-o'zini o'zgartirishning shaxsiy tajribasi va boshqalarga bog'liq. Shunga ko'ra mashg'ulotlarda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini

hisobga olish va u bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlikda qurish kerak. Binobarin, o'qituvchining asosiy vazifasi har bir talabani ma'lum bir me'yorga "moslash" emas, balki uning shaxsiy xususiyatlarini ro'yobga chiqarishda yordam berish, o'z-o'zini idrok etishi va o'z-o'zini nazorat qilishni rag'batlantirish, individual o'rganish uslubini topishda qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi. Talaba maktab o'quv materiallari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini muayyan sinfda qo'llash nuqtai nazaridan metodik jihatdan tahlil qilish va tanqidiy baholashni o'rganishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchining axborot va ilmiy-tadqiqot texnologiyalarini o'zlashtirishi ta'lim sifatini oshirishning ajralmas asosi sanaladi. O'quv-uslubiy ta'minotni yaratishda axborot-gnostik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'qituvchining axborot-tadqiqot texnologiyalaridan malakali foydalanishi talabaning ijodiy salohiyatini shakllantirishga pedagogik ta'sirni oshiradi.

Oliy ta'lim tizimini raqamli axborotlashtirish sharoitida o'quv jarayonining samaradorligi o'qituvchining texnologik kompetentligiga ham bog'liq bo'lib, u nafaqat o'quv jarayonida texnologik vositalardan foydalanishni, balki o'quv materiallarini ishlab chiqishni ham o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy materiallar ma'lumotlar bazasini yaratish talabalarning mustaqil ish jarayonlarini intensivlashtirishga imkon beradi, ularning faoliyatini va o'qituvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Kasbiy kompetensiya tarkibida muhim va nisbatan mustaqil kichik tizim hisoblangan, kasbiy-gnostik kompetentlik o'zini boshqa subyektlar bilan o'zaro aloqa qilish qobiliyati sifatida namoyon etadi. Bo'lajak bakalavr-o'qituvchining kasbiy-gnostik kompetentligiga qo'yiladigan talablar quyidagi integrallashgan kompetensiyalarni rivojlantirishda aks etadi:



Talabalarining pedagogik amaliyoti davomida nafaqat nazariy va amaliy kompetensiyalar sinovdan o'tkaziladi, balki ularning boshqa talabalar bilan mustaqil ta'limga tayyorligi, bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy-gnostik kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Talabalar o'quvchilar bilan ishlashda dastlabki ish tajribalarini o'zlashtirishi sababli o'quv faoliyatiga moslashadilar. Talabalarining kasbiy-gnostik fazilatlarini va

kompetentsiyalarini shakllantirish samaradorligida til amaliyoti ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tajriba olib borish uchun zarur.

O'z o'rnida, amaliy-pedagogik yondashuv bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarning kasbiy-gnostik kompetentsiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligiga yordam beradigan muhim shart hisoblanadi, zero talabalarni kontekstdan tashqarida, o'quv jarayonini hayot haqiqatlariga yaqinlashtiradigan muayyan tadqiqot holatidan tashqarida kasbiy-pedagogik faoliyatga to'liq tayyorlashni amalga oshirish juda qiyin. Shunday qilib, amaliy-pedagogik yondashuv talabalarni kasbiy-gnostik tayyorlash sifatini oshirishda muhim salohiyatga egaligini ta'kidlash mumkin.

Avvalo, ilmiy faoliyatda natijalarga erisha oladigan mutaxassislar zamonaviy raqobat sharoitida muvaffaqiyatini ta'minlay oladilar. Shunga ko'ra, bunday mutaxassislar muayyan kompetentsiyalar majmuiga ega bo'lishi kerak. Bular: qiyinchiliklarni bartaraf etish, egiluvchanlik, fikrlashning dinamikligi va nostandart, o'ziga xos yechimlarni topish, shuningdek, yuqori bosimga chiday olish qobiliyati shular jumlasidandir. Bu kompetentsiyalarning barchasi intellektual-gnostik rivojlanishning tarkibi sifatida baholanadi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-gnostik kompetentsiyasini samarali shakllantirishga yordam beradigan integrallashgan pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi: kasbiy-gnostik kompetentsiyani shakllantirish jarayonida o'quv fanlarining o'zaro aloqasini amalga oshirish, o'quv jarayonida faol ta'lim usullaridan foydalanish, bo'lajak bakalavr-o'qituvchining kasbiy-gnostik kompetentsiyasini shakllantirishda variativ kurslardan foydalanish, gnostikaga yo'naltirilgan amaliyot jarayonida faoliyatli yondashuvni amalga oshirish kabi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari sifati, ularning samaradorligi va, albatta, har bir o'qituvchining fazilat va kompetentsiyalari haqida muntazam so'rovlar o'tkazish – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Hulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik ish xususiyatlarini aniqlash va asoslash, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-gnostik kompetentsiyasi komponentlari, o'quv jarayonida uni shakllantirish mexanizmlari bir-biriga yaqin bo'lib, pedagogik faoliyatning ajralmas dinamik tizimini shakllantiradi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy-gnostik kompetentsiyasini qondirish kerak bo'lgan pedagogik talab, me'yor, qoidalarning mavjudligini ekspert nuqtai-nazaridan baholash, test, so'rovnomalar va boshqa usullar yordamida uning faoliyat sifatini o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlikni o'lchash muammosi uning shakllanish mezon, ko'rsatkich va darajalari muammosi bilan bog'liq. Tadqiqotda biz quyidagilarga asoslandik: kognitiv-shaxsiy komponent; motivatsion-qadriyatli komponent; vaziyatli-nutqqa doir komponent; subyektiv-idrokiy komponent. Integrallashgan mezon va

ko'rsatkichlarni tanlash asosida aniqlandi va umumlashtirildi, bular esa bo'lajak o'qituvchining kasbiy-gnostik kompetentsiyasini yanada to'liq tavsiflaydi, uning shakllanish darajasini asoslashga imkon beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov. E. E. The content of the language professional-gnostic training of an English teacher. Bulletin of Gulistan State University, 2021
2. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. 84-bet
3. EE Hamdamov - Bulletin of Gulistan State University, 2021 Technology Forming the Gnostic Competence of Future Teachers of Foreign Language <https://scholar.google.com/scholar?cluster=10058741619249835739&hl=en&oi=scholar>